

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini
tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5040-son qarori
ijrosini ta’minlash borasida
Ma’lumotnoma**

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida 2021-yil 31-may 160-son buyrug‘i asosida Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tuzilgan.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tavsiya etilgan yo‘nalishlar asosida vazirlik va uning tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan 2026-yilga mo‘ljallangan “Yillik taqvim reja” Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan va tasdiqlangan.

Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan taqdim etilgan raqamli targ‘ibot mahsulotlari - targ‘ibot-tashviqot materiallari vazirlik va tizimosti korxonalar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda keng yoritib borilmoqda.

Vazirlik va uning tasarrufidagi tashkilotlarda mavjud kutubxonalarni lotin alifbosida chop edilgan sohaga oid, ilmiy, siyosiy, texnik hamda badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish ishlari davom etmoqda. Tizimdagi kutubxonalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan til siyosatini takomillashtirish borasida tarqatilayotgan kitoblar bilan ta’minlangan.

o‘quvchi va talabala yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish maqsadida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida el ardog‘idagi shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar davom etmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish maqsadida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan o‘tkaziladigan ma’rifiy targ‘ibot bo‘yicha qisqa muddatli o‘qitish kurslariga 100 dan ortiq vazirlik va tizimosti korxonalari xodimlari o‘quv kurslarining sertifikatlariga ega bo‘ldilar, “Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish” markazida tashkil etilayotgan oylik kurslarda shartnoma asosida o‘qish davom etmoqda.

Kon-geologiya vazirligi Markaz tomonidan har yili o'tkaziladigan "Eng namunali vazirlik va idora" tanlovida muntazam ishtirok etib kelmoqda

Shuningdek, vazirlik markaziy apparati va uning quyi tashkilotlari xodimlariga ish yuritish to'liq lotin yozuvida bo'lishi uchun zarur bo'lgan uslubiy yordam ko'rsatib borilmoqda.

Vazirlik va tizimidagi tashkilotlar xodimlarini "Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish" markazida tashkil etilayotgan oylik kurslarda shartnoma asosida o'qitish ishlari davom ettirilmoqda.

Vazirlik tizimidagi barcha tashkilot va korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan tayyorlangan va asosiy imlo qoidalarini o'zida jam qilgan qo'llanma ish yuritishda foydalanish uchun taqdim etilgan.

Vazirlik rasmiy sayti, elektron pochta manzillari nomlari hamda dasturiy ta'minot vositalari davlat tilida bo'lishi ta'minlangan. Tizimda davlat tilini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yangiliklardan keng jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib borish vazirlik rasmiy web-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalari orqali amalga oshirib kelinmoqda.

Tog'- kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimosti korxonalarining yetuk va malakali mutaxassislari ishtirokida davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish bo'yicha Atamalar ishchi guruhi 2023-yil 4-sentabr №91-sonli buyruq asosida tayinlangan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha vazir maslahatchisi ushbu ishchi guruh vakillari bilan birgalikda tashkilot normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari matnining davlat tili qoida va talablariga, jumladan, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos bo'lishini ta'minlash bo'yicha tahririy xato-kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan lingvistik ekspertiza xulosalarini berib kelmoqda.

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasi xodimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan terminologik bazani shakllantirish maqsadida va davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish doirasida soha mutaxassislari, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan 2018-yilda "Qidiruv geofizikasi atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'ati" chop etilgan. Mazkur lug'at geologiyanging

ajralmas qismi bo'lgan geofizika yo'nalishida ko'p qo'llanadigan ruscha atamalarining o'zbekcha atalishi, ularning ta'rifi va ma'nosi haqida ma'lumot beradi.

Lug'atda geofizika atamalarining izohiga e'tibor berilgan. Foydali qazilmalarni izlash, qidirib chamalash va qazib olishda qo'llaniladigan geofizikaning barcha usullarining 1000dan ortiq atamalarini o'z ichiga olgan. Ushbu lug'at geologiya yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari, kasb-hunar kollejlari va shu sohada ishlayotgan muxandis-texnik mutaxassislariga amaliy yordam berishi tabiiy.

Shuningdek, soha mutaxassislari tomonidan 2021-yilda "Konchilik ishlari atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'ati" chop etildi. Mazkur izohli lug'at foydali qazilmalarni ochiq usulda va yer ostida qazib olishga doir 2200dan ortiq atamalarini o'z ichiga olgan bo'lib, unda konchilik ishlari atamalarining tarjimai va qisqacha izohi keltirilgan. Lug'atda konchilik ishlarida qo'llanib kelinayotgan aksariyat atamalar bayon qilingan. Lug'atdagi atamalarga berilgan izoh tushunarli va ravon tilda yoritilishiga, tarjimalari kon ishlari jarayonlari, usul va uslublarning o'zbek tilidagi ma'no va mohiyati jihatdan to'g'ri ochib berilishiga hamda talqin qilinishiga alohida e'tibor qaratilgan. Lug'at oliy o'quv yurtlari talabalari va shu sohada mehnat qilayotgan mahalliy kadrlar bilim darajasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konchilik ishlariga doir lug'at va adabiyotlarning davlat tilida ko'p emasligidan kelib chiqqan holda ushbu dastlabki izohli lug'atlar O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonunida belgilangan vazifalarning bajarilishiga munosib hissa qo'shadi.

Sohaning etuk mutahassislari olimlar, geograflar, tarixchilar, o'lkashunoslar va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunlari talablariga asosan kon-geologiya sohasidagi geografik obyektlar - konlarning nomlarini kon joylashgan hudud, uning nomi, tarixiy joylar hamda homashyoning turi va tarkibiga nisbatan davlat tiliga maqbullashtirish ishlarini olib bordilar.

Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligi nuqtai nazaridan kon nomlari ro'yxati davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun Respublika komissiyasiga topshirildi. Respublika komissiyasi o'tkazgan ish yakunlariga hamda davlat ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa asosida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" Qonunlari ijrosini ta'minlash maqsadida Kon-geologiya vazirligi tomonidan **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga**

muvoqilashtirish to'g'risidagi qarorlari loyihasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-noyabr №766-son va 2025-yil 18-iyun №379-son qarorlari bilan tasdiqlandi.

Hozirda Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi foydali qazilmalar konlari nomlari davlat tili qoida va me'yorlariga muvoqilashtirilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar hamda ma'lumotlar bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha zarur choralar ko'rilmogda.

Ayni damda sohaning malakali matahassislari mavjud konlarning nomlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunlari talablariga asosan maqbullashtirish ishlarini davom ettirmogdalar. Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvoqilashtirish hamda yangi nom berish to'g'risidagi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha qabul qilinishi bilan Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlarning nomlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunlari talablariga asosan maqbullashtirishga erishiladi.

Soha xodimlari va aholiga qulaylik yaratish maqsadida vazirlik mutahassislari tomonidan geografik obyektlarning avvalgi va yangi nomlari kiritilgan Android mobil ilovasi yaratildi. Ushbu ilovani vazirlikning rasmiy veb-saytida yuklab olish mumkin.

Bu boradagi ishlar nafaqat geologiya sohasida o'zbek tilini keng targ'ib qilish, balki o'zbek tilini ixtisoslashgan yo'nalishda rivojlantirish, qonunchilik me'yorlarini hayotga tatbiq etish va o'zbek tilining jamoat hayotida to'liq qo'llanilishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, halqimiz hamda o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida kon-geologiya sohasini keng targ'ib qilish, sohaga nisbatan qiziqishni orttirishga xizmat qiladi.

Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

Z.Ahmedova